

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI TIZIMIDA ZAMONAVIY UCHUVCHISIZ APPARATLARDAN FOYDALANISHNING AVZALLIKLARI

Mansur Mirkomilovich Magrubov

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xodimi

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan jahonning yetakchi mamlakatlari o‘z Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-yarog‘lar va zirhli texnikalarning yangi avlodlari bilan ta’minlab, mavjudlarini esa yanada takomillashtirishmoqda. Hozir nafaqat quruqlikda jang olib borish balki havo hamda koinot orqali ham hujum qilishning yangi usul va texnikalari yaratilib turli rivojlangan mamlakatlarining Qurolli Kuchlari tizimida ishlatib kelinmoqda.

Zamonaviy uchuvchisiz uchish apparati nima tushunish lozim hamda ularning qanday turlari mavjud, ularni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida maxsus operatsiyalarni bajarish vaqtida foydalanishdan maqsad nima? Hamda ularni Qurolli Kuchlar tizimida ishlatishdan nima naf bor?-degan savollar tug‘ulishi tabiiy xol albatta.

Uchuvchisiz uchish apparati (keyingi o‘rinlarda dronlar deb yuritiladi)- bu uchuvchisiz uchish apparati (BPLA, BLA) yoki uchuvchisiz aviatsiya qurilmasi (UASes) deb ataladi. Dronlar masofadan turib boshqariladigan va avtonom ya’ni, oldindan kiritilgan ma’lumotga asosan harakatlanadigan turlarga bo‘linadi.¹

Avvaliga dronlardan faqat havodagi nishonlarni yo‘q qilish, dushmanga hujum qilish uchun va ma’lumotlarni yig‘ish uchun ishlatilgan bo‘lsa, hozirda fuqarolik sohalarida ham keng ishlatilib kelinmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi, kuzatuv va qo‘riqlash xizmatida, geodziya, arxeologiya qidiruv va qutqaruv ishlarini amalga oshirishda, yuk yetkazib berishda, kinomatografiyaning foto hamda video tasvirga olish kabi sohalarida ishlatilib kelinmoqda.

Dronlarning turlari ham ko‘p bo‘lib, ularning nomlanishlari ham albatta har xil. Ko‘pincha harbiy sohada ishlatiladigan uchuvchisiz uchish apparatlarini –“**dronlar**” deb atashsa, fuqarolik sohalarida ishlatiladigan uchuvchisiz uchish apparatlarini –“**kopter**”lar deb atashadi.

Kopterlarning hozirda kvadrokopter, trikopter, oktokopter va geksakopter kabi turlari ancha rivojlangan.

¹ <https://dronomania.ru/faq/chto-takoe-dron.html>

Birinchi bo‘lib **“dron”** atamasini 1936-yili Amerika dengiz floti uchinchi rang kapitani **Delmar Farni** o‘z xisobotida ilk bor ishlatgan va ushbu ibora keyinchalik ommalashib ketgan.²

O‘z navbatida “quadrocopter” so‘zi esa ingliz tilidan olingan bo‘lib, “to‘rtrotorli vertolyot” degan ma‘noni anglatadi. Rotorlarning soni va boshqa funksiyalariga qarab kopterlarni - multikopterlar deb ham atashadi.

Kopterlarning nomlanishlari ularning paraklarining sonidan kelib chiqib, kvadrokopter – to‘rtparakli (rotorli), trikopter - uchparakli, oktokopter - oltiparakli va geksakopter - sakkizparakli deb nomlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida maxsus operatsiyalarni bajarish vaqtida dronlardan foydalanishdan maqsad nima va ularni Qurolli Kuchlar tizimida ishlatishdan nima naf bor?

Rivojlangan davlatlarning Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy dronlar:

- Dushman qo‘shinlari joylashuvi bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘ish;
- Havodagi nishonlarni yo‘q qilish;
- Dushmanning radio to‘lqinlarini to‘shish;
- Radio to‘lqinlarni uzatish uchun vositachi sifatida foydalanish (retranslyator);
- Dushmanga havodan xujum qilish kabi hozirgi kunda vazifalarini bajarib kelmoqda.

Endi fuqarolik sohalarida ishlatiladigan dronlar, ya‘ni kopterlarning bajarish funksiyalarini sanab o‘tsak:

- Foto va video tasvirga olish (harbiy dronlarda ham mavjud);
- Yuk ko‘tarish;
- Tezkor harakatlanish;
- Qishloq xo‘jaligi sohasi bilan bog‘liq ishlarni amalga oishirish (suv va urug‘larni sepish va x.z);
- Odam tashish va shu kabi boshqa yangi funksiyalarni bajara oladi.

Albatta, shu o‘rinda bir savol tug‘iladi harbiy hamda fuqarolik dronlarning farqi nimada? Ularning bir ko‘rinishda funksiyalari o‘xshashku?

Harbiy dronlar fuqarolik dronlariga qaraganda:

- og‘ir;
- uzoqqa uchish va balandga ko‘tarilish qobiliyatiga ega;
- ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan(kopterlarning ayrim turlarida ham mavjud);
- paraklarning mavjud emasligi (ko‘p modellarida);
- Narxining ancha qimmatligida va boshqalar.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki>

Harbiy dronlar ancha qimmatligini hisobga olsak, fuqarolik dronlarining narxini hisobga olib ulardan ham Qurolli Kuchlarimiz tizimidagi maxsus operatsiyalarni bajarishda va quyidagi holatlarda foydalanishimiz mumkin.

Jumladan,

- Favqulotda xolat yoki tabiiy ofat sodir bo'lgan joylarni aniqlash va hududlarining xaritalarini chizishda;
- Favqulotda xolat yoki tabiiy ofat sodir bo'lgan joylardagi aholiga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazishda;
- Yong'in sodir bo'lgan joyni o'chirishda;
- Dala o'quv mashg'ulotlarida o'quv mashg'ulotlarini borish jarayonlarini nazorat qilishda;
- Davlat chegaralarini qo'riqlashda;
- Toifalangan ob'yektlarning hududlarini qo'riqlash va nazorat qilishda;
- Jazoni ijro etish muassasalari hududlarini qo'riqlashda;
- Huquqni muhofaza qilish organlaridan qochayotgan shaxsni qidirishda (qochganda);
- Ommaviy tartibsizliklarda vaziyatni nazorat qilishda;
- Fuqarolar garovga olingan (tog', ko'p qavatli bino va ommaviy transport) ob'yekt to'g'risida ma'lumot to'plashda;
- Muhandislik o'q-dorilarini zararsizlantirishda.

Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa holatlarda dronlardan foydalanishda erishiladigan avzalliklar:

- ma'lumotlarni tezkor to'plash va qisqa vaqtda tahlil qilish imkonining paydo bo'lishi;
- real xolatni (onlayn) kuzatish va nazorat qilish;
- qo'shimcha jalb etiladigan xodim yoki harbiy xizmatchi ishchi ko'chini kamaytiradi;
- Tabiiy ofat va xavf bilan bog'liq joylarda harbiy xizmatchi hamda xodimning sog'lig'i, hayotini saqlab qolish.

Shu bilan birga, davlat tomonidan to'lanadigan kompensatsiya to'lovlarning byudjetda saqlab qolinishiga erishiladi. Albatta, bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Dronlardan foydalanish masalasi hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida qonunchilik bilan tartibga solinayotgan yangi soha hisoblanadi. Avvaliga dronlardan faqat ijobiy maqsadlarda foydalanish nazarda tutilgan bo'lsada, lekin ushbu qurilmalar tufayli ko'ngilsiz hodisalar va jinoyatlar sodir etilishi ko'paygani bois ba'zi davlatlarda dronlarni ruxsatsiz uchirishga taqiqlar qo'yila boshlandi hamda ularni uchirish uchun ruxsat berish tartiblari ham ishlab chiqildi.



Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uchuvchisiz uchish apparatlarini O'zbekistonga ruxsatsiz olib kirish, sotish va ulardan foydalanish 2015 yil 1 yanvardan taqiqlangandi. O'zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan uchuvchisiz uchish qurilmalar va ularga tegishli butlovchi qismlarni olib kirishi va undan foydalanishi qonun bilan taqiqlanadi va javobgarlikka tortiladi.

Xalqaro fuqarolik aviatsiyasining qonunchiligining asosi sifatida 1919-yilda qabul qilingan "Havodagi harakatlarni tartibga solish to'g'risida"gi **Parij Konvensiyasi** (keyingi o'rinlarda Parij Konvensiyasi) va uning o'rniga kelgan 1944-yil 7-dekabrda qabul qilingan "Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi to'g'risida"gi **Chikago Konvensiyasi** (keyingi o'rinlarda Chikago Konvensiyasi) deb ta'kidlab o'tgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-may kunidagi 863-sonli Qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Havo Kodeksi (keyingi o'rinlarda Havo kodeksi deb yuritiladi) qabul qilindi.

Ushbu Havo kodeksi davlat manfaatlarini himoya qilish, havo kemalari parvozi xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi va fuqarolari ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida aviatsiya faoliyatini hamda samoviy hududdan foydalanish bilan bog'liq boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi va O'zbekiston Respublikasining barcha aviatsiyasi uchun taalluqlidir.³

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-921-son Qonuniga muvofiq

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga **185⁴-modda** qo'shildi. Ushbu moddada:

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish,

uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda** jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, **ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinadi**.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244⁴-moddasi, Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish hamda 248¹-moddasi, Uchuvchisiz uchadigan

³ Lex.uz, Ўзбекистон Республикаси Хаво Кодексининг 1-бўлим, 3-моддаси.



apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Lekin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244⁴-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.⁴

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabr kunidagi 658-sonli Qarorining 6-bob, 47-bandida⁵: "O'yinchoq havo kemalari modellarining parvozlari aerodromlarning havodagi yaqinlashuv yo'lagiga 150 metrdan kam bo'lmagan uzoqlikda, **50 metr**gacha balandlikda, odamlardan xavfsiz masofada va uchadigan apparat doimiy vizual ko'rinib turgan holda amalga oshiriladi"-deb aytib o'tilgan.

Agar tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz hududida yuqoridagi davlatlardan ikki yoki uch baravar pastroq ya'ni **50 metr** balandlikdan oshmasligi lozimligi belgilangan. Bu esa o'z navbatida fuqarolarimiz va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilganligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida, shuni aytishimiz mumkinki bugun shiddat bilan rivojlanayotgan axborot-texnologiyalar davrida qisqa fursatda ma'lumotga ega bo'lish va ushbu ma'lumotlar asosida harakatlanish, to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'p sonli yo'qotishlarni oldini olishi mumkin. Bunda esa zamonaviy dronlarning o'rni beqiyos albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar va ijtimoiy tarmoqlar ro'yxati:

1. Об утверждении Положения о порядке эксплуатации беспилотных летательных аппаратов в гражданской и государственной авиации Республики Узбекистан: Постановление Кабинета министров Республики Узбекистан от 31 августа 2016 г. № 287 // Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2016. № 36. Ст. 414.

2. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан (утвержден Законом РУз от 22.09.1994 № 2012-II) [Электронный ресурс]. URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=4052_ugolovnyy_kodeks_respubliki_uzbekistan_\(utverjden_zakonom_ruz_ot_22_09_1994_g_n_2012-ii\)](https://nrm.uz/contentf?doc=4052_ugolovnyy_kodeks_respubliki_uzbekistan_(utverjden_zakonom_ruz_ot_22_09_1994_g_n_2012-ii)).

3. Законы о беспилотниках американских штатов привели в соответствие с нормативами FAA [Электронный ресурс]. URL: https://aeronet.aero/media/2017_09_27_zakony_o_bespilotnikakh_amerikanskikh_shtatov (дата обращения: 17.04.2018).

4. Воздушный кодекс Российской Федерации от 19.03.1997 № 60-ФЗ (ред. от 06.07.2016) // Собрание законодательства РФ. 1997. № 12. Ст. 1383.

⁴ <https://lex.uz/acts/111453>

⁵ <https://www.lex.uz>



5. 911security.com/learn/airspace-security/drone-laws-rules-and-regulations
6. «Беспилотные летательные аппараты в асимметричных конфликтах»
Клуб учебной аналитики. 2016 йил, 189-199 б.
7. Look, no pilot. The Economist. November, 2000. URL:
<http://www.economist.com/node/417775> (accessed 20.03.2015)
8. Сравнительный анализ развития законодательства в области
использования беспилотников в странах ОЭСР, 2019 йил, doi.org
9. Актуальные проблемы авиации и космонавтики-2015 йил, 1-том, 704-705
б.
10. Н.Ю.Курченко, Е.В.Труфляк «Нормативно-правовая база использования
беспилотных авиационных систем», КубГАУ 2020 йил, 5-бет.
11. [Что такое дрон?](#). dronomania.ru.
12. www.wikipedia.org.ua.
13. www.Missiles.ru.
14. www.mavinci.de.
15. www.geoscan.aero.
16. www.micropilot.com.
17. www.lex.uz
18. <https://www.twirpx.com/>
19. www.kun.uz